

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

3-maxsus son
(maxsus son)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Boshlang'ich ta'lim – kelajakka qo'yilgan qadam



TA'LIM VA TARBIIYA NAZARIYASI

- A. Nurmanov, Y. Turganov** 6 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tendensiyalari
- F. Raxmatova** 9 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish
- M. Tilakova, D. Norbekov** 12 Uzlüksiz ta'lim tizimida tarixiy-madaniy yodgorliklarni idrok qilishva texnologik-konstruktiv yondashuv
- B. Boltayeva** 15 "Pirls" xalqaro tadqiqotiga o'quvchilarni tayyorlashda o'zlashtirish malakasining o'rni
- A. Usmonov** 18 Ijodkorlik fazilatlariga ega shaxslarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
- D. Kulboyeva** 21 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya darslari orqali kreativlik qobiliyatini takomillashtirish
- J. Isoqov, Z. Jalolova** 24 Yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning roli
- M. Sheranova** 27 Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda milliy -ma'naviy qadriyatlardan foydalanish
- D. Abduraxmonova** 30 Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls dasturiga tayyorlash
- F. Oripova** 34 Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning ijtimoiy asoslari
- M. Soliyeva** 37 Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqotini tashkil etish
- Sh. Sindorov** 40 Tarbiyada xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish
- L. Turaqulov** 43 Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvining psixologik hususiyatlari



TA'LIM VA TARBIIYA METODIKASI

- G. Xolboyeva** 46 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mutolaa madaniyati orqali intellektual salohiyatini takomillashtirish
- R. Atamurodova** 49 Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish (adabiyot darslari misolida)
- H. Sodiqov** 52 Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati xususiyatlarini nazarda tutuvchi badiiy-etik matnlarni tanlash mezonlari
- D. Haydarov** 55 Axborot ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini loyihalash kompetensiyasini shakllantirish
- Sh. Siddiqova, O. Nuraliyeva** 58 "Fe'l" mavzusini o'tishda lug'atlarning ahamiyati
- S. Temurov, D. Nusratova** 61 Kadrlar salohiyatini oshirishda individual ta'lim metodining afzalliklari
- H. Shukurova** 65 Kasbiy faoliyatda metodik yondashuvni takomillashtirish
- D. Mustafaqulova, O. Ismatullayeva** 68 Biologiya darslarida o'quvchilarning tizimli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Usmonov, B. Suvankulov** 73 Ta'lim sifatini oshirishda interfaol elektron o'quv kurslarni yaratish ahamiyati



DAVLAT TILI: BURCH VA MA'SULIYAT

Sh. Siddiqova, S. Nuriddinova 76 Navoiy badiiy olami xususida muxtasar fikrlar



MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

N. Xasanova 79 Musiqa fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ta'limda samaradorligi
E. Abdukarimova 82 Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish
M. Mo'minova 85 Bolalar folkloridagi axloqiy tarbiya xususiyatlari



MAKTABGACHA TA'LIM

X. Akramova I. Aralova 89 Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq nuqsonlarni korrektsiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari
G. Davurova 93 Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga – hayotga tayyorlovchi ko'nikmalar
N. Abduqodirova 96 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda madaniy- ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari



PSIXOLOGIYA

N. Boyto'rayeva 99 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda kadriyatlar motivatsiyasi
D. Sodiqova 102 Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos afzalliklari



KORREKSION PEDAGOGIKA

X. Akramova 105 Aqli zaif o'quvchilar mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'llari
G. Temurova 108 Eshitishda nuqsoni bor nutqiy bo'lmagan tovushlar orqali eshitish idrokini rivojlantirish usullari
X. Akramova, D. Ropijonova 111 Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda oila va maktab hamkorligini amalga oshirish yo'llari
X. Akramova, D. Zokirova 115 Professional ta'limda aqli zaif bolalarning nutqini o'stirish bo'yicha korreksion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish



XALQ PEDAGOGIKASI

D. Farsaxonova 119 Boshlang'ich sinf "tarbiya" fanini o'qitishda ajdodlar merosidan foydalanish masalalari
M. Soibnazarova 123 Abdulla Avloniy qarashlari asosida yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantirish
K. Pardayeva 126 Abdulla avloniy faoliyatining ijtimoiy-ma'rifiy jihatlari
U. Uktamova 129 Talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni rivojlantirishning tarixiy asoslari
D. Farsaxonova S. Asrorova 132 Bola tarbiyasida psixologiyaning o'rnini va ahamiyatini borasida mutafakkirlar qarashlari



ТЕОРИЯ ВОСПИТАНИЯ

T. Абсаломов 135 Развитие образование билингвальной профессиональной компетенции педагога
У. Зокирова 138 Духовность и эстетичность как ценностное содержание сознания



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Г. Куттибекова, Н. Абдукарима 141 Педагогические основы применения арт-педагогических технологий в эстетическом воспитании младших школьников

Umida UKTAMOVA,

Jizzax davlat pedagogika instituti, "Pedagogika ta'limi nazariyasi"
kafedrasida o'qituvchisi

TALABA QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni rivojlanishining tarixiy asoslari hamda xotin-qizlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida ishtirok etishlarini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Tarixiy taraqqiyot, gender tenglik, jinsi bo'yicha kamsitish, oilaviy munosabatlar, ayollar huquq va erkinliklari, ayollarga nisbatan diskriminatsiya, urf-odatlar, oilada tenglik, oiladagi psixologik muhit.

В статье освещены исторические основы развития мировоззрения против притеснений и агрессии у девочек, а также содержание проводимой работы по обеспечению участия женщин на всех этапах политической, экономической и социальной жизни.

Ключевые слова. Исторический прогресс, гендерное равенство, дискриминация по признаку пола, семейные отношения, права и свободы женщин, дискриминация женщин, традиции, равенство в семье, психологический климат в семье.

The article highlights the historical foundations of the development of the worldview against harassment and aggression among girls, as well as the content of the ongoing work to ensure the participation of women at all stages of political, economic and social life.

Key words. Historical progress, gender equality, gender discrimination, family relations, womens rights and freedoms, discrimination against women, traditions, equality in the family, the psychological climate in the family.

Bizga ma'lumki hozirgi kunga kelib, talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashini shakllantirish lozim. Xo'sh, dunyoqarash deganda, biz nimani tushunamiz? Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi.

Talaba-qizlarni dunyoqarashini shakllantirib borish mobaynida ularni dunyoqarashini rivojlantirish lozim. Talaba-qizlar o'z oilasini qurgandan so'ng turmush o'rtog'iga nisbatan turmush munosabatlarida hamfikir, maslahatdosh, suyuqli rafiq va mehribon ona, farzandlariga mukammal tarbiya bera olishlari lozim. Hattoki, tarixda ham Amir Temur hamda Zarriddin Muxammad Bobur bobokalonlarimiz suyuqli rafiqalarini dono o'g'itlariga quloq solib maslahatlar olishgan. Bizga tarixdan ayonki, ayollarning jamiyatdagi o'rniga munosabat turli davrlarda turlicha bo'lgan. Ayol har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etadi. "Ayollar bir qo'llari bilan beshikni tebratsalar, bir

qo'llari bilan dunyoni tebratadilar” iborasi bejiz aytilmagan. Xo'sh, ayolga munosabat ular huquqlarining tarixiy ildizlari qayerga borib taqaladi? Agarda biz tariximizga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk temuriylar saltanatida Amir Temur bobimizning suyakli rafiqasi Bibixonim mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. Oqila – mehribon ona sifatida o'g'li Jahongirga eng yaqin maslahatchi bo'lganlar.

Shuningdek, har bir buyuk inson ortida buyuk ayol turadi. Xususan, hukmdorlarning hayotida, olamshumul zafarlarida, ravnaqi va hatto inqirozida ham malikalar katta o'rin tutgan. Zahiriddin Muhammad Boburning katta ayoli Mohim begim ham temuriylar tarixidagi nihoyatda xushxulq, teran ilm sohibasi bo'lgan malikalardan biri edi. Mirzo Bobur har sohada Mohim begimga suyanar, fikrlarini tinglab, oilaviy muhitning nazoratini unga topshirgan edi. Unga Boburiylar saltanatidagi eng katta unvonlardan biri – “Podshoh begim” unvoni beriladi. Mohim begim ham husn-u latofatda, ham fahm-u farosatda Bobur Mirzoning didiga munosib ayol edi. Mohim ko'pgina safarlarida Boburga hamrohlik qilgan. Mohim begim Humoyundan keyin yana ikki o'g'il va ikki qiz – Borbul, Foruq, Mehr-Jahon begim va Eson Davlat begim ismli farzandalarini dunyoga keltirgan bo'lsa-da, ular go'dakligidayoq nobud bo'lishgan. Bobur hatto boshqa ayoli dunyoga keltirgan farzandlarining tarbiyasini ham Mohim begimga ishonardi. Mohim begim zukko, kamtarin va sabrliligi bilan ajralib turgan. U o'g'li Humoyun Mirzoni nihoyatda zehni, jasur va mard etib tarbiya qilgan. Shu sababli Boburning hurmatiga, cheksiz e'tiboriga sazovor bo'lgan edi. Boburning kichik ayoli – Dildor og'acha dunyoga keltirgan ikki farzandi – Hindol va Gulbadanbegimni ham Mohim begim tarbiya qilishni istagan. O'z navbatida, Gulbadanbegim ham o'zining akasiga bag'ishlab yozgan “Humoyunnoma” asarida Mohim begimni alohida hurmat va ehtirom ila tilga oladi.

Quyida keltirilgan fikrlarda ayol – tabiatining qudratli va buyuk in'omi ekanligidan dalolatdir. Ayni paytda esa yoqimli va nozik, sevuvchi va tushunuvchi, harakatchan, turli qiyinchiliklarga bardoshli, mukammal xilqat hamdir.

Ko'p yillar davomida Islom dini chalasavod din xodimlari tomonidan buzib talqin qilingan. Vaholanki, Islom dinida ayollarni hurmat qilish va sevisga da'vat qilinadi. Qur'oni Karimda ta'kidlanishicha, erkak va ayol, ularning qobiliyati va layoqati teng sanaladi. Islom diniga binoan ayollar va qiz bolalar tovar oldi-sotishning predmeti hisoblanmaydi.

Ayollar huquqlari va ularning muxofazasi bugungi kunda ham muhim bo'lib qolmoqda. Ayollar ustidan jabr-zulm o'tkazish, o'z joniga qasd qilish afsuski hozir ham uchrab turadi. Yozilmagan qonun kuchiga ega bo'lgan bu an'analar hozirgacha mavjud. Voyaga yetmagan qizlarning erta turmushga uzatilishi, katta oilalarda kelinlarning huquqsizligi, uning nafaqat turmush o'rtog'iga, balki ota-onasiga ham bo'ysunishi, kelinning homiladorlik masalalarini, akusher va ginekologlarga uchrashni o'zlari hal qilmasliklari, nikohga kirgandan so'ng o'qishni davom ettirish mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi, kabi masalalarning unga bog'liq emasligi kelinga nisbatan noto'g'ri munosabatlarning isbotidir. Afsuski, talaba qizlarning dunyoqarashi rivojlanmaganligidan bir qancha muammolar kelib chiqmoqda. Oilali talaba qizlar boshiga tushadigan kulfatlarga ko'proq ularning huquqiy bilimsizligi, o'z huquq va erkinliklarini bilmasliklari sabab bo'ladi. Talaba qizlarning dunyoqarashini shakllantirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish, ularni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida shakllantirish borasida bir qator islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, shu yildan boshlab oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlarni qo'shimcha granti asosida qabul qilish tartibi joriy etildi. Davlat komissiyasi majlisining 2020-yil 1-son bayoni bilan Respublika OTMlariga

umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun to'rt foizli qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi. Unga ko'ra, yangi o'quv yilida xotin-qizlar uchun OTMLar bakalavriyatning kunduzgi ta'lim shakliga qo'shimcha kvotalar ajratildi. Shuningdek, 2020-2021-o'quv yilida xotin-qizlar ushbu tanlovda ishtirokini ta'minlash maqsadida tegishli tavsiyanomalarni operativ tarzda berish vakolati tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlariga yuklatildi.

Shuni aytib o'tishimiz lozimki, yurtimizda xotin – qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish hamda xotin – qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida ishtirok etishlari to'la-to'kis ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda, Xotin – qizlarni tazyiq va zo'rvonlikda himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasi anchagina bahs mulohazalarga sabab bo'lib kelmoqda. Jumladan, Turkiston xotin-qizlari hayoti asrlar davomida musulmonchilik qonun-qoidalariga va an'analariga asosida kechgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ular aksariyat hollarda mehnatga tortilmasdan, balki uy-ro'zg'or ishlarida band bo'lishgan va farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. O'zbek xotin-qizlarining bunday turmush tarziga diniy "xurofot" sifatida qaralgan. Hozirda ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi, ularning tor oila muhitidan ozod bo'lib, keng ijtimoiy-siyosiy hayotga tortilish g'oyasi ilgari surildi. Bunday e'tibor natijasida xotin-qizlar ijtimoiy-foydali mehnatga hamda jamoatchilik ishlariga qo'shila boshladilar.

Shunday ekan bunday zo'rvonlik va tazyiqqa yo'l qo'ymaslik uchun:

– talaba-qizlar ma'naviy olami ruhiy-psixologik holatini o'rganib borish maqsadida, talaba qizlarda yuksak ma'naviyat tushunchalarni shakllantirish borasida uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish lozim;

– talaba-qizlarga maslahat kengashi tomonidan sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha maslahatlar berish zarur;

– o'z salomatligiga nisbatan mas'uliyat, turli zararli odatlarga ruju qo'ymaslik, faxsh yo'lga kirmaslik, muntazam ravishda sport bilan shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish masalalarida doimiy tarzda tushuntirish ishlari olib borish;

– kiyinish va muomala madaniyatiga rioya qilishga o'rgatish;

– talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash;

– talaba-qizlar kelajak hayotga bo'lgan munosabatlariga bag'ishlangan turli tadbirlar, davra suhbatlari o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Qomus. Info Onlayn Ensiklopediya.*

2. *Ayol huquqi va erkinliklari. Tansiqbayeva G.N., Gasanov M.Y., Qodirova A.M. – T.: Adolat. 2002-yil.*

3. *Android qurilmalar uchun Zarnews.uz mobil ilovasi. Bobur Mirzoning qalbini rom etgan Xurosonning ul go'zali kim erdi? 14.02.2020, Rustam Jabborov. UzA.*

4. *"O'zbekistonning yangi tarixi" 2-kitob. – T.: Sharq, 2000, 270-282, 375-470-betlar.*